

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI SO 'ZLASHUV NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Rahimova Maxfuza Yusufjonovna
Andijon viloyati Buloqboshi tumani
25-MTT tarbiyachisi
Tel: 97 836 05 10

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7095251>

ANNOTATSIYA

“Ta’lim to’g’risida»gi Qonunda belgilab berilganidek, maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog’lom va yetuk maktabda o’qishga tayyorgarlik darajasini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta’lim bolaning 6–7 yoshga to’lguniga qadar oilada maktabgacha ta’lim muassasalari va mulk shaklidan qat’i nazar, ta’lim muassasalarida olib boriladi.

Key words: bola nutqi, til qobiliyati, nutqiy rivojlanish, nutq ko’nikmasi.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont’ev).

Ilmiy tadqiqotlar va yo’nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o’rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O’zbekiston Respublikasida o’tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta’lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o’qitish zarurligi masalasini ko’tarib chiqdi. U tomonidan o’tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958–1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o’zbek bolalariga ruscha og’zaki nutqni o’rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan.

XX asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbayeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda o’qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo’yicha tadqiqot o’tkazildi. S.O.G’oziyeva tomonidan (E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o’zbek xalq og’zaki ijodidan (xalq ertaklari,

o’yinlar) foydalanish asosida atrofdagilarga adolatli munosabatda bo’lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi. 1979-yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili va o’zga tilni (rus, o’zbek) o’qitish muammosi O’zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot

obyekti hisoblanadi (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshq.).

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik – o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir »

Ta'lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to'g'risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi va amaliyotida o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Bu o'zgarishlar me'yoriy o'quv-metodik adabiyotlarda muayyan darajada o'z aksini topgan. Lekin, ularga hozirgi talablar nuqtayi nazaridan tanqidiy yondoshmoq talab etiladi.

Metodist olimlarning ko'pchiligi bolalar bog'chalarida bolalarning nutqini o'stirish shartlarini to'g'ri ta'kidlaydilar. Mazkur mualliflarning fikricha, nutq madaniyatining kamchiliklari bola shaxsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bola tengdoshlari bilan muloqotda qo'rs, odamovi, quntsiz bo'lib qoladi. Bundan tashqari, bunday bolada tevarak-atrofnı o'rganishga bo'lgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa maktabda darslarnı o'zlashtira olmaslikka sabab bo'ladi.

E'lon qilingan tadqiqot ishlarini umumlashtirib o'rgangan holda ularning ko'pchiligida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarnı hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqladik:

- tovushlarnı to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo nutq eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq egallaydi);
- aniq talaffuz hosil qilish (so'z va so'z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish);
- so'zni talaffuz qilganda urg'uni to'g'ri qo'yish ustida ishlash;
- nutqning orfoepik jihatdan to'g'riligi ustida ishlash (bu namunaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami);
- nutq sur'atini rivojlantirish;

- nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya'ni nutqning ongli ifodalanishi);
- nutqiy aloqa ko'nikmalarini tarbiyalash;
- nutqiy eshitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- nutq'iy nafas olishni shakllantirish;
- o'z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va otalarning roli benihoya kattadir.

Bolalar nutqi ustida ishlash jarayonida:

- a) tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lishlariga;
- b) tabiiy ohangda gapirishlariga;
- d) so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga;
- e) qo'llarini bamaylixotir holatda tutib turishiga e'tibor bermoq zarur.

Bizga ma'lumki, til bilan tafakkur o'rtasida uzviy aloqa mavjud, ular bir-birisiz yashamaydi. Manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning so'z boyligini rejali, tarzda izchil kengaytirib borish zarur.

Bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun:

- a) nutq o'stirishga doir tevarak-atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish;
- b) bolalarning eslab qolishi va to'g'ri talaffuz etishi, so'zlashganda tez-tez foydalanishi, ahamiyatini tushunishi, zarur bo'lgan so'zlarning taxminiy ro'yxatini tuzish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning faol lug'atini boyitishda ularni tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim vosita sanaladi, tadqiqotchi A.M.Borodich shunday deb yozadi: «Bolalarni borliq bilan tanishtirishning ikkita yo'li bor»:

1) hissiy organlar bilan tashqi olamni bevosita idrok etish – bolalar predmetlarni kuzatadilar, ushlab ko'radilar, eshitadilar, tatib ko'radilar, u bilan harakat qiladilar;

2) bolalar tevarak-atrofdagilar haqida bevosita ma'lumot oladilar; tarbiyachi mehnat kishilari to'g'risida, tabiat bilan bog'liq hayot haqida gapirib beradi, bolalar kuzatgan hodisalarni tushuntiradi, kitob o'qib beradi, rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar namoyish etadi.

Xuddi mana shu tavsiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar bilib oladigan tevarak-atrof obyektlarini tasniflash uchun asos sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga, bolalarda faol va passiv lug'at boyligi asta-sekin ortib boradi, nutq rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigan, ma'nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo'llaydigan so'zlarni asta-sekin tevarak-atrof bilan tanishish

jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o'zining uncha ko'p bo'lmagan so'z zaxirasiga tayanib bilib oladi. Bola o'sib boradi, uning ehtiyojlari ko'payadi, yangi istaklari, qiziqishlari paydo bo'ladi. Biroq tarbiyaning aqliy, axloqiy, mehnat va boshqa turlari bir maromda (bolaning yoshiga muvofiq) amalga oshishi uchun maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atidagi so'zlar miqdori ustida yetarlicha o'ylab ko'rilmaydi. Afsuski, bu masalaga tadqiqotchilar tomonidan ham tegishli darajada e'tibor berilmaydi. Ta'limiy-tarbiyaviy jihatdan nihoyatda dolzarb bo'lgan bu muammo nazariy-metodologik va metodik jihatdan tadqiq etilmagan va ishlanmagan.

Hozirgi davr tadqiqotchilari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun (shu jumladan, nutqni rivojlantirish bo'yicha ham) namunaviy faol va passiv so'zlar lug'atini (hech bo'lmaganda taxminiy) tuzishlari ham kun tartibidagi dolzarb masaladir. Ayniqsa, 5, 6 va 7 yoshdagi bolalar uchun lug'atlar tuzish nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, nafaqat so'zlarning miqdoriy tarkibini aniqlash (1500, 2000 yoki 3000 – 4000 so'z), balki ularni mavzular va hayotiy ahamiyati bo'yicha ham hisobga olish muhimdir.

Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat tevarak-atrofnı o'rganish, obyektlarnı asoslı ravishda tanlash, balki aynı paytda eng ahamiyatlı so'zlarnı ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi (ya'ni sifat tarkibi, ma'nosi) bo'yicha o'rganishni ta'minlash ham dolzarb masaladir.

Yetti yoshga kelib, bola odatda, nutqning barcha grammatik shakllarini, ya'ni: otlarnı turlash, eng ko'p qo'llaniladigan fe'llarnı tuslashni bilishi lozim. Harakat belgisini (kenglik, vaqt, harakat obrazi) tavsiflash uchun ular ravishlardan foydalanadilar, buning uchun bolalar ularni so'z birikmasi va gap qatorida qo'llaydilar: tez yurdi, sekin gapirdi, chapga burildi va boshq. Bu yoshdagi bolalarga nutqda sifatdoshlarnı qo'llashni o'rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlarning ikkinchi yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Bolalar nutqiga sifatdosh shakllarnı kiritish uchun bolalar, kattalar, hayvonlar, qushlarning turli harakatlarini tasvirlovchi suratlardan foydalanish mumkin (o'qiyotgan bola, raqs tushayotgan qiz, yugurayotgan quyon va h.k.).

Bolalar surat asosida gap tuzadilar: «Bola o'qiyapti». Tarbiyachi o'qiyotgan bola so'z birikmasini tuzishga yordam beradi. Tarbiyachi so'z birikmasidagi sifatdoshni aytadi, so'ngra bolalardan so'raydi:

«Qaysi bola?» – «O'qiyotgan bola».

Mashg'ulot uchun eng ko'p qo'llaniladigan fe'llarnı olish va ulardan hozirgi zamondagi haqiqiy sifatdoshlarnı hosil qilish darkor. Bolalarga hech qanday atamalar ma'lum qilinmasligi kerak, bunda ularning ayrim sifatdoshlarnı esda

saqlab qolishlari va zarur bo'lganda ularni o'z nutqiga qo'sha olishlari juda muhimdir. Bolalarning sifatdoshlarni qo'llashlariga oid ishlar tabiatni kuzatish chog'ida, rasm chizish mashg'ulotlarida, badiiy adabiyotni o'qish jarayonida o'tkazilishi mumkin. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Predmetni, uning belgilarini ko'rsatish va nomini aytishni ularning mohiyatini ochib beradigan izohlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Masalan, tushayotgan barg so'z birikmasida – bu tushayotgan bargdir. Bolalarga tanishtiriladigan sifatdoshlarni yaxshisi, oldin alohida-alohida, keyin jo'r bo'lib aytgan ma'qul.

2. Muayyan so'zning hosil bo'lishini tushuntirib berish: «chizayotgan» so'zi chizmoq so'zidan, «raqsga tushayotgan» so'zi raqsga tushmoq so'zidan hosil bo'lganligini aytish lozim.

3. Sifatdoshga savollar qo'yish: «Dala qanday, sarg'ayaptimi?» «Sarg'ayapti».

4. Ot va sifatdoshdan iborat bo'lgan so'z birikmasi asosida gap tuzish: «sarg'ayayotgan barglar – olmaning sarg'ayayotgan barglari ko'rinib turibdi», «varillayotgan samolyot – varillayotgan samolyot shahar ustidan uchib o'tdi» va h.k.

Xulosa qilib aytganda, inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi.

– Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi.

– Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

– Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigan, ma'nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo'llaydigan so'zlarni asta-sekin tevarak-atrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o'zining uncha ko'p bo'lmagan so'z zaxirasiga tayanib bilib oladi.

Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o'zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi. –T., 2011.
2. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T., 2001.

3. Kadirova R.M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning omillari (o'quv qo'llanma). -T.:TDPU, 2002.
4. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish». -T.: «O'qituvchi», 1990